

## **O‘Q OTISH MASHQINI TASHKILLASHTIRISH VA O‘TKAZISH USLUBI**

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH  
TAYYORGARLIK FANIDAN OTISH TAYYORGARLIGI BO‘LIMI.

**Xushvaqtov Sharif Adilovich**

Shahrisabz “Temurbeklar-maktabi”

Harbiy-akademik litseyi chaqiruvga qadar  
boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi.

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqola chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarida otish tayyorgarligi bo'limida o'q otish mashqlarini o'tkazish uslubiyatiga bag'ishlangan.

Maqolada mavzuning maqsad va vazifalari, pedagogic va psixologik asoslari, xavfsizlik qoidalari, o'quv usullari va otish mashqini tashkil qilish va o'tkazish usullari ko'rib chiqiladi. Maqolani maqsadi CHQBT fani o'qituvchilariga otish tayyorgarligi fanidan o'q otish mashqini tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha bilimlarini takomillashtirishdan iborat.

**Kalitso'zlar:** O'qotish, uslubiyat, xavfsizlik qoidalari, o'quvusullari, mashq turlari, o'q otish tiri, trenajor, jangovar tayyorgarlik.

### **Kirish qismi.**

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning muhim qismidir. Ushbu fan doirasida o'q otish mashqlari o'tkazish uslubiyati yoshlarning jangovar tayyorgarligini ta'minlash, qurol bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va xavfsizlik qoidalariga rioya etishni o'rgatishga yo'naltirilgan. Bunday tayyorgarlik yoshlarning vatan himoyasi burchini shakllantirishga xizmat qiladi.

Harbiy psixologiya va pedagogika asosida o'tkaziladigan mashqlar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki psixologik chidamlilikni ham oshiradi. Mavzuning ahamiyati zamonaviy sharoitlarda yoshlarning xavfsiz va samarali tayyorgarligini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Maqola ushbu uslubiyatni batafsil ko'rib chiqadi.

## **Asosiy qism**

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarida o'q otish mashqlarini o'tkazish uslubi harbiy psixologiya va pedagogika tamoyillariga asoslanadi. Ushbu uslubiyatning maqsadi –yoshlarning jangovar tayyorgarligini oshirish, qurol va texnikadan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Pedagogik tamoyillar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ilmiylik (haqiqatga asoslanganlik), jangovar harakatlarga yo'naltirilganlik, o'quvchilarning faolligi, ko'rgazmalilik (o'quv qurollari, qurol maketlari, yer, joy maketlari orqali), tizimli va izchil ravishda o'tkazish. Ushlubiyat individual va guruhli yondashuvlarni hisobga oladi, yoshlarning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. O'zbekiston Mudofaa vazirligining talablariga ko'ra, rahbarlar tashabbuskorlik va ijodiy yondashuv ko'rsatishi va mashg'ulotlar jangovar holatga yaqinlashtirilgan holatda tashkil etilishi kerak.

Umumta'lim maktablarning 11-sinf o'quvchilari Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan o'q otish mashqini bajarishadi.

Ushbu mashqni to'g'ri tashkillashtirish ChQBT fani o'qituvchilaridan uslubiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Otish mashqini o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rish quyidagilarga bo'linadi:

- mashg'ulot rahbarining tayyorgarligi
- o'quv moddiy bazasini tayyorlash
- o'quvchilarning tayyorgarligi

Mashg'ulot rahbarining tayyorgarligi avvalombor bajariladigan mashq shartini o'qib o'rganishidan boshlanadi.

Shundan so'ng mashq asosida o'quv nuqtalarni tayyorlaydi.

Otish mashqini o'tkazish rejasini tuzadi va ushbu reja asosida o'quv nuqtalarida mashg'ulot rahbarlarini tayyorgarlik ko'rishlari uchun uslubiy tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkil etadi.

**O'q otish mashqini o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar yuritiladi:**

- O'q otishni o'tkazish uchun maktab direktorining buyruqi.
- O'q otishni o'tkazish uchun reja.

- O'q otishni o'tkazish uchun o'quv nuqtalarida konspektlar.
- O'q otishni o'tkazish uchun havfsizlik qoidalar.
- O'quvchilarni baholash uchun baholash ro'yhatlari.
- Otish maydoni rahbariga, o'q-dori xizmati boshlig'iga, avtomobil xizmati

boshlig'iga arizalar beriladi.

O'quv ishlari bo'yicha direktorning o'rinbosari bilan birgalikda otish mashqi o'tkazish bo'yicha direktorning buyrug'ini ishlab chiqadi.

### **Maktab direktorining buyrug'ida quyidagilar ko'rsatiladi:**

- otish mashg'uloti o'tkazish to'g'risidagi dasturlar va yuqori rahbariyat buyruqlari,
- otish mashqini o'tkazish joyi, vaqti,
- mashg'ulot o'tkazish uchun katta rahbar,
- o'quv nuqtalardagi mashg'ulot rahbarlari,
- tibbiyot punkti boshlig'i,
- aloqa boshlig'i va yordamchilari,
- navbatchi mashina turi va haydovchilar ko'rsatiladi.

### **O'q otishni o'tkazish uchun reja.**

O'q otishni o'tkazish uchun rejada otish mashqining o'quv, tarbiyaviy maqsadlari, o'tkazish joyi, vaqti, o'quv moddiy ta'minoti, o'quv qurollari, ekipirovkalar qurol aslaha va anjomlar;

Kirish qismida o'quvchilar safga tiziladi, davomat aniqlanadi va mashg'ulotning mavzusi hamda maqsadi e'lon qilinadi. O'quvchilarga otish mashg'ulotlarining ahamiyati, xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish zarurligi tushuntiriladi. Shuningdek, qurol bilan muomala qilishning umumiy qoidalar eslatib o'tiladi:

Asosiy qismda barcha o'quv nuqtalarida tashkil etiladigan mashg'ulotlar, mahg'ulotlarning davomiyligi, maqsadi, joyi, vaqti, rahbari va almashuv sxemalari ko'rsatiladi.

### **O'q otishni o'tkazish uchun o'quv nuqtalarida konspektlar.**

Oq otish mashqi uchun quyidagi o'quv nuqtalari tayyorlanadi:

- O'quv qurollarini noto'liq qismlarga ajratish va qayta yig'ish bo'yicha meyyorlar bajarish joyi. Qurollarni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ishni mashq qilish o'quv joyida o'rganuvchilar turli hil o'quv qurollarini noto'liq qismlarga ajratish va qayta yig'ishni mashq qilishadi va 12-,13- meyyorlarni bajarish natijalari asosida baholanadilar.

- komandirlik qutisi yordamida to'g'ri mo'ljalga olishni mashq qilish joyi.

- qurollarni normal jangavor holatga keltirish o'quv joyi.

- tayanchdan yotib otishga tayyorlanish, mo'ljalga olish, otishni amalga oshirish o'quv joyi.

- bajariladigan o'q otish mashqi shartlarini o'rganish o'quv joyi.

### **Havfsizlik qoidalariga rioya etishni o'rgatish o'quv joyi:**

- havfsizlik qoidalariga rioya etishni o'rgatish o'quv joyida qurol va texnikalar bilan muomala qilish vaqtida qilinadigan qoidalarni, qurolni to'g'ri saqlash qoidalarga qat'iy rioya etish, "O'q otish to'xtatilsin" signali orqali otish mashqlarini to'xtatish. Otish mashqlari jangovar sharoitga yaqinlashtirilgan bo'lsada, xavfsizlik uchun maxsus kuzatuv va oldindan tayyorgarlik talab etiladi.

- qurollarni normal jangavor holatga keltirish o'quv joyida har bir qurolni o'q otishini tekshirish va normal uradigan holatga keltirish ishlari amalga oshiriladi.

- Tayanchdan yotib otishga tayyorlanish, mo'ljalga olish, otishni amalga oshirish o'quv joyida o'quvchilar bilan qurolida 1-2-meyyorlarni bajarish usullarini hamda turli holatlardan o'q otish usullarini o'rganishadi.

- mashqni shartlarini o'rganish o'quv joyida qanday mashq bajarish shartini va ushbu mashqni ahamiyatlarini, yakson qilinishi zarur bo'lgan nishonlar hamda baholash tartiblari o'rganishadi.

Barcha o'quv nuqtalari uchun reja konspektlar tayyorlanadi va mashg'ulot katta rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Xujjatlar tayyor bo'lganidan so'ng ta'minot bo'linmalariga, o'q-dori xizmati boshlig'iga, avtomobil xizmati boshlig'iga, oziq ovqat xizmati boshlig'iga arizalar beriladi.

Barcha raxbarlar shaxsiy tarkibni o'q o'tish mashqlariga tayyorlash uchun shaxsan javobgar bo'lishadi va tayyorlashadi.

### **Xulosa qismi**

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanida o'q o'tish mashqlarini o'tkazish uslubiyati yoshlarning jangovar tayyorgarligini oshirish va vatanparvarlik ruhini shakllantirishning samarali vositasidir. Ushlubiyat psixologik va pedagogik tamoyillarga asoslangan bo'lib, xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioyaetish, turli o'quv usullari va mashq turlaridan foydalanishni talab etadi. Natijada, yoshlarnafaqattexnikko'nikmalarga, balki psixologik chidamlilikka ega bo'ladi. Kelgusida ushbu uslubiyatni raqamli texnologiyalar bilan boyitish tavsiya etiladi.

### **Foydalanganadabiyotlar**

1. Axatov S.A. Chaqiruvgaqadarboshlang'ichtayyorgarlikfaniningmaqsadvavazifasi. Cyberleninka.ru, 2022.
2. Harbiypsixologiyavapedagogikaasoslari. O'quvqo'llanma. Uniwork.buxdu.uz, 2022.
3. Umumiy pedagogika. Jdpu.uz, 2021.
4. Muammolar, izlanishlar, yechimlar. Avloniy.uz, 2022.